

YOSHLAR IJTIMOIY KAPITALINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xo'jamqulov Adham Qo'chqor o'g'li

SamDU tayanch doktoranti

Telefon: +998-99-594-04-58

Gmail: adhamxojamqulov561@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”ning mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” tamoyili asosida yoshlar ijtimoiy kapitalini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, tabaqalanish, yoshlar, ta’lim, salomatlik, aholi farovonligi.

Bugun jahonda barcha mamlakatlar ichki siyosatining bosh maqsadi ijtimoiy davlat qurish hisoblanmoqda. Chunki ijtimoiy davlat ijtimoiy institutlarning barqaror tarmog‘i shakllagan, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlash, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat, bolalar, xotin-qizlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, muhtojlar bandligi, uy-joy bilan ta’minalash, xavfsiz mehnat sharoitlarini kafolatlash deganidir. Jumladan, Avstraliya, Fransiya, Hindiston, Kanada va Germaniya hukumatlari o‘zlarining ijtimoiy farovonlik dasturlari orqali ijtimoiy xavfsizlik deb ataluvchi o‘zining mukammal tajribasini e’lon qildi. Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiya davlatlari esa ishchi kuchi ishtirokini maksimal darajada oshirishga, gender tengligini rag’batlantirishga, daromadlarni qayta taqsimlashning katta hajmiga va ekspansion fiskal siyosatdan liberal foydalanishga urg'u berishi bilan ajralib turuvchi Nordik ijtimoiy farovonlik modelini ishlab chiqishgan. Yaqin sharqda Saudiya Arabistoni, Quvayt, va BAA ijtimoiy davlatga yaqqol misol bo‘la oladi. Osiyoda Xitoy bolalar siyosati, Shri-Lanka qashshoqlikni kamaytirish dasturlari, Singapur esa Milliy ijtimoiy xizmat kengashi ijtimoiy davlatning asosiy elementlarini o‘zida jamlagan davlat sifatida e’tirof etish uchun yetarli asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida davlatlar tajribasidagi umumiylig shundaki ijtimoiy davlat poydevorini yaratish mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minalashdan boshlanadi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mavjud iqtisodiy tizimga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy himoya, bandlikni rag’batlantirish, gender tengligi maqsadlari va barqarorlik muammolari kabi innovatsiyalar uchun davlat resurslarini taqsimlash yanada keng qamrovli kun tartibiga olib keladi. Ijtimoiy soha xarajatlari raqobatbardoshlikni kamaytirmaydi, aksincha raqobatbardoshlikning o‘zi esa ilg‘or ijtimoiy ta’minalot tizimlarini rivojlantirishga turtki beradi (Pashkevich, 2022).

Ijtimoiy institutlar yaxshi ishlamaydigan davlatlar uchun esa iqtisodiy o'sishga tahdid sifatida tasvirlash mumkin (Mars, 2007). Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ijtimoiy ta'minot institutlari va ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarining ijobjiy aktivlar sifatida o'ynagan rolini e'tibordan chetda qoldirmasdan, tegishli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish orqali kompaniyalar va biznes sektorida innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun sharoit yaratish ijobjiy samara beradi (Crouch, 2015). Izlanishlarning katta qismi shuni ko'rsatadiki, odamlar nafaqaga chiqish uchun mustaqil ravishda tejash yoki vaqtincha daromad yo'qotilishiga qarshi. Ijtimoiy davlat bunday tejashni soliqlar va tegishli pensiya yoki ishsizlik nafaqalari orqali tashkil qiladi. Ushbu ijtimoiy yechim, shubhasiz, qarilik yoki ishsizlik davridagi qashshoqlikni sezilarli darajada kamaytiradi, shuningdek, keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

"Ijtimoiy davlat - davlat yoki ijtimoiy institutlarning yaxshi tashkil etilgan tarmog'i, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilish va rag'batlantirishda asosiy rol o'ynaydigan hukumat shaklidir. U imkoniyatlar tengligi, boylikni adolatli taqsimlash va yaxshi hayot uchun minimal imkoniyatlardan foydalana olmaydiganlar uchun davlat javobgarligi tamoyillariga asoslanadi"¹.

Bizningcha ijtimoiy davlat – shaxs, oila, jamiyat va davlatning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydigan, kuchli, lekin yumshoq va insonparvar, har tomonlama qonun va adolatga asoslangan tuzilmaga ega, ijtimoiy islohotlarni to'xtatib qo'yishdan ko'ra muvofiqlashtirish va yo'naltirish, samarali tekshirish va rahbarlik qilish tamoyiliga asoslangan davlatdir. Nogironlar, kambag'allar, yetimlar va qariyalarga g'amxo'rlik qilish; fuqarolarning ta'lif, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ta'minot xizmatlaridan bahramand bo'lishini ta'minlash, xizmatlar ko'rsatishda sifatga erishish ijtimoiy davlatning asosiy elementlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumida tasdiqlangan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida ham O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi alohida belgilab qo'yildi. Shuningdek, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni tasdiqlangan bo'lib, uning 1-yo'nalishi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan. Ushbu yo'nalishda ijtimoiy rivojlanishning quyidagi strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

- Maktabgacha ta'lif tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash.
- Umumiyl o'rta ta'lif tizimida "Ta'lif uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish.

¹ The Editors of Encyclopaedia. "welfare state." Encyclopedia Britannica.

- Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.
- Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.
- Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish
- Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish.
- Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish.
- Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minalash.
- Sog‘lom va faol keksalikni ta’minalash.
- Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish.
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish.
- Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish.
- Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minalash.
- Nuroniyarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.
- Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish.
- Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish.
- Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.²

Kutilayotgan natijalardan ham ko‘rinib turibdiki, yurtimizda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib qoladi va bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”. Ya’ni:

- ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi;
- ijtimoiy davlat shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta’minalash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi;
- ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”. 11.09.2023. PF-158-son

shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir;

- yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta'minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo'yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi;
- eng muhimi, ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi, o'z muammolari bilan yolg'iz tashlab qo'yilmaydi.³

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, "Yangi O'zbekiston - ijtimoiy davlat" tamoyili asosida yoshlar ijtimoiy kapitalini shakllantirish yoshlarga oid siyosat sohasida bir qator o'zgarishlar qilishni taqozo etadi. Shu boisdan yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishda quyidagilarni e'tiborga olish muhim hisoblanadi:

Birinchidan, yoshlarning yangicha muammo va ehtiyojlarini tan olish. Chunki, jamiyatimizda ayrim stereotiplarga tayanib ushbu ehtiyojlar va muammolarga salbiy munosabatlar shakllangan.

Ikkinchidan, yoshlarga oid siyosatda marginallashuvni bartaraf etish. Ya'ni, yoshlarga oid siyosat yoshlarning barcha qatlamlariga (uyushmagan yoshlar, qishloq yoshlari, migrant yoshlar, nogironligi bor yoshlar) yetib borishi lozim;

Uchinchidan, yoshlarga "resurs" sifatida qarash, ularning salohiyatidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishning asosiy boyligi sifatida foydalanish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat"⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida". 11.09.2023. PF-158-son.
2. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent - «O'zbekiston» - 2017.
3. Sh.Mirziyoev. BMT Bosh Assambeleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017.
4. G'ulom MIRZO. Ijtimoiy davlatning asl mohiyati – ijtimoiy adolatdir. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz. 20.02.2024.
5. A.Vaxabov. "Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish". Darslik. T.: «Innovatsiya-Ziyo» - 2020.
6. С.П.Шапошников. "Социальное государство: теоретико-правовая модель". дисс. кандидат юридических наук. 2010.
7. The Editors of Encyclopaedia. "welfare state." Encyclopedia Britannica.

³ G'ulom MIRZO. Ijtimoiy davlatning asl mohiyati – ijtimoiy adolatdir. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz. 20.02.2024. <http://nhrc.uz/oz/news/m12519>

⁴ Sh.Mirziyoev. BMT Bosh Assambeleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017.